

## QORAKO'L QO'ZILAR TERISIGA TA'SIR QILADIGAN OMILLAR VA UNI SELEKSIYALASH XUSUSIYATLARI

***Yangiboyev Abdimalik Eshmurodovich***

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali q.x.f.f.d., (PhD) dotsenti*

***Aminova Shoira Furqat qizi***

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali assistenti*

***Xasanboyev Muxammadsodiq Abdusalom o'g'li***

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali talabasi*

***Annotatsiya;*** *Qorako'l qo'ylarining barra teri mahsuldorligiga ularning yoshi, yaylov-ozuqa sharoitlari, tabiiy va sun'iy serpushtlik va boshqa omillar ta'sir qiladi.*

*Avlodlarda qorako'l mahsuldorligining sekinlashishi ko'p jihatdan nafaqat sovliqlarning, balki nasllik qo'chqorlarning ham yoshiga bog'liq bo'ladi. Individual hayotining turli davrlarida sovliqlarning qorako'l mahsuldorligi bir xil bo'lmaydi. Turli yoshdagi sovliqlar yaylov-ozuqa sharoitlariga turli darajada bardosh beradi. Bu esa ayniqsa bug'ozligining ikkinchi yarmidagi homila rivoji va qorako'l shakllanishi bo'yicha farqlarga olib keladi. Qo'ylarning yoshi o'z navbatida elita va birinchi klassli qo'zilar chiqimiga va shu orqali qorako'l terilarining umumiy sifatiga, xususan birinchi nav qorako'l chiqimiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.*

***Kalit*** *so'zi: qorako'l qo'ylari, Jun mahsuldorligi, teri mahsuldorligi, terilarning sifati, elita, birinchi navli teri, qo'zilar, ona qo'ylar.*

***Аннотация:** На баррашкурную продуктивность каракольских овец влияют их возраст, пастбищно-кормовые условия, естественная и искусственная плодовитость и другие факторы.*

*Замедление продуктивности баранов в поколениях во многом зависит не только от возраста совликов, но и от возраста баранов-производителей. В разные периоды жизни особи продуктивность совликов неодинакова. Коровы разного возраста в разной степени переносят пастбищные и кормовые условия. Это приводит к различиям в развитии плода и формировании плаценты, особенно во второй половине срока беременности. Возраст овец, в свою очередь, влияет на выход элитных и первоклассных ягнят, а значит, и на общее качество каракольских шкур, особенно на выход первоклассных караколов.*

***Ключевые слова:** каракольские овцы, шерстная продуктивность, шкурная продуктивность, качество шкур, элита, шкура первого сорта, ягнята, овцы.*

***Annotation:** Barra skin productivity of Karakol sheep is influenced by their age, pasture and feed conditions, natural and artificial fertility and other factors.*

*Slowing down of the productivity of rams in generations largely depends not only on the age of the sovliks, but also on the age of the breeding rams. In different periods of an individual's life, the productivity of the sovliks is not the same. Cows of different ages tolerate pasture and feed conditions to different degrees. This leads to differences in the development of the fetus and the formation of the placenta, especially in the second half of the gestation period. The age of sheep, in turn, has an effect on the output of elite and first-class lambs, and thus on the general quality of Karakol skins, especially on the output of first-class Karakol.*

***Key words:** Karakol sheep, Wool productivity, skin productivity, quality of skins, elite, first grade skin, lambs, ewes.*

Qorako'l qo'ylari yoshining ulardan olinadigan avlodlar qorako'li sifatini aniqlash maqsadida Buxoro viloyati Konimex tumani "Oktyabr 40 yilligi" sovxozida maxsus tajriba o'tkazilgandi. Tajriba uchun jaket barra tipining o'rta gul II-klassiga mansub me'yorida rivojlangan, mustahkam konstitusiyali sovliqlarning uch otari ajratildi. Birinchi otar (737 bosh) bir yarim yoshli urg'ochi qo'ylardan, ikkinchi otar (769 bosh) 3,5-5,5 yoshlik sovliqlardan va uchunchi otar (722 bosh) 6 dan katta yoshli sovliqlardan tashkil qilingandi. Barcha sovliqlar o'rta yoshli elita klass nasllik qo'chqor va ota liniyasi bo'yicha amaki hisoblanuvchi teng sifatli ikkinchi qo'chqor urug'i bilan qochirildi. Bu otarlarda SJK preparati qo'llanilmadi, yaylov-ozuqa sharoitlari barcha sovliqlar uchun bir xil qulay edi.

Har 100 sovliqdan birinchi otarda 93,2, ikkinchi otarda 108,7 va uchunchi otarda -101,1 bosh qo'zi olindi. Avlodlar sifati bo'yicha yana ham kattaroq farqlar aniqlandi: o'rtacha ishlab chiqarish yoshidagi (3-6 yosh) sovliqlardan elita (9,7%) va birinchi klass (61,5%) qo'zilar eng ko'p olingan bo'lsa, bu ko'rsatkichlar tusoq (1,5 yosh) qo'ylarda mos tarzda 3,6 va 38,8% ni, qari (6 yoshdan katta) qo'ylarda 4 va 20% ni tashkil qildi.

Qari qo'ylar birinchi klass qo'zilarini eng kam bergan bo'lsa, tusoq qo'ylar o'rta miqdorda berdi. Buning aksicha past sifat (II va III klass va terisining sifati bo'yicha yaroqsiz) qo'zilar chiqimi qari sovliqlarda eng ko'p, tusoq sovliqlarda o'rtacha miqdorda, o'rta yoshli (3-6 yosh) sovliqlarda eng kam bo'ladi.

O'rta yoshli qo'ylardan olingan qo'zilar yaxshi rivojlangan bo'lib, vazni bo'yicha tusoq sovliq qo'zilarida o'rtacha 524g ga, qari sovliq qo'zilarida 270 g ga vazminroq bo'ladi.

Olingan qorako'lning tovar xususiyatlari o'rganilganda ham sezilarli farqlar aniqlandi.

O'rta ishlab chiqarish yoshidagi sovliqlar qo'zi terisining sath o'lchami bo'yicha nisbatan yirik (to'liq maydoni 2079 sm<sup>2</sup>) va vazmin (243g) bo'lgan bo'lsa, eng kichik o'lchamli (1860 sm<sup>2</sup>) va yengil vaznli (182g) terilar tusoq (1,5

yoshli) sovliqlarning qo'zisidan olingan. Qari qo'ylar (6 yoshdan katta) qo'zisining terisi vazni (199g) va sath o'lchami (1892 sm<sup>2</sup>) bo'yicha oraliq ko'rsatkichlarga ega bo'lgan.

O'rta ishlab chiqarish yoshidagi sovliqlar qo'zisining terisi sal qalinlashgan, ammo besh yosh toifasidagi sovliq qo'zilarining tersiga nisbatan mag'z qalinligi va tolalar uzunligi birmuncha tekis. Tusiq sovliqlar qo'zisining terisi birmuncha yupqalashgan mag'zi, sal kaltargan tola qoplami bilan ajralib turadi. Qari sovliqlar qo'zisining terisi mag'z qalinligi va tola uzunligi bo'yicha umumiy oraliq masofani egallasa ham, ammo teri mag'zining g'ovaklashgan tuzulish va teri yuzasi bo'ylab mag'z qalinligining notekisligi ularni ajratib turadi.

Tusiq sovliqlar qo'zisining terisiga nisbatan o'rta ishlab chiqarish yoshidagi sovliqlar qo'zisining terisida tola qoplami tig'izroq va rangi quyuproq edi. Qari sovliqlar qo'zisi terisining tola qoplami nisbatan siyraklashgan, rangi bo'shashgandi.

Tola qoplaminin ipaksimonligi va yaltiroqligi bo'yicha o'rta ishlab chiqarish yoshidagi va to'soq sovliqlar qo'zilarining terilari ancha yaxshi deb baholandi: ularning 90% da ziyodrog'i kuchli ipaksimon va ipaksimon kuchli va me'yorli yaltiroqlikka ega edi. Ana shu tovar ko'rsatkichlari bo'yicha qari qo'ylardan olinadigan qo'zilar nisbatan ancha past sifatli edi.

Ularning orasida yetishmagan ipaksimonlik va yaltiroqlikdagi, dag'al va quruq tolali, kigizsimon va "kuyik", shishasimon va xira yaltiroqlikdagi qo'zilar anchagina edi.

Terisining yuzasida ijobiy shaklli qorako'l gullari ko'pchilik bo'lgan qo'zilar asosan o'rta ishlab chiqarish yoshidagi sovliqlardan olinadi. To'soq sovliqlardan olingan qo'zilar terisining yuzasi yetarli miqdordagi ijobiy shaklli, qayishqoq gullar bilan qoplangandi, shu bilan birga kamroq qimmatli gullar miqdori ham birmuncha ko'paygandi. Gullar sifati bo'yicha qari qo'ylardan olingan qo'zilar oldingi ikki guruh sovliqlarning qo'zilaridan ancha past edi. Qorako'l gullarining sifatidagi farq qorako'l xomashyosi assortimentining turlicha bo'lishiga olib keladi. O'rta ishlab chiqarish yoshidagi sovliqlardan

olingan qorako'l terilari orasida eng qimmatbaho sanaluvchi jaket barra guruhiga mansublari ancha ko'p, qalin mag'z birinchi navlar kamroq edi. To'soq sovliqlardan olingan terilar ko'proq "Jaket-I" , "Moskva jaketi" va "Qovurg'asimon yuqori-I" navlariga kiritildi, qalin mag'z I-navlar nisbatan kam edi. Yuqoridagi ko'rsatkichlar bo'yicha qari qo'ylardan olingan qorako'l terilar sifati oldingi ikki guruh sovliqlardan olingan terilarga nisbatan ancha past edi.

Biologik jihatdan har xil yoshli qorako'l qo'ylari bir-biridan farq qiladi. Ularning yaylov o'tlaridan foydalanish qobiliyati bir xil bo'lmaganligidan ona qornida o'sayotgan homilaning rivojlanishi ham turlicha bo'ladi va u provard natijada qorako'l terilarining tovar xususiyatlarida o'z aksini topadi.

**Yaylov-ozuqa sharoitlari.** Qorako'l terilarining tovar xususiyatlariga katta ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri qorako'l qo'ylarini oziqlantirish va asrash sharoitlari hisoblanadi.

XX-asrning boshlarida Rusiyaning Ovrupa qismiga olib kelingan qorako'l qo'ylarining yangi muhitga moslashishini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazgan M.F.Ivanov olingan natijalarini umumlashtirish asosida ana shu fikrning to'g'riligini tasdiqladi.

Qorako'l qo'ylari yangi oziqlantirish va asrash sharoitlariga keskin ta'sirchanlik namoyish qiladi. Sovliqlarning, ayniqsa homiladorlik davrida homilaning gurkirab, jadal o'sishiga, teri sathining yiriklashishiga, teri mag'zining qalinlashuvi va vaznining oriqlashuviga, tolalarining o'sib ketishiga, gullarining yiriklashib, boshanglashishiga olib keladi.

Keyinroq o'tkazilgan tadqiqotlar qorako'l qo'ylarini oziqlantirish va asrash tartibi terilarning tovar xususiyatlariga ma'lum darajada ta'sir qiladi, ammo ana shu ta'sir yo'nalishi borasida olimlar turlicha xulosaga kelishgan.

Ko'pchilik olimlar sovliqlarning bug'ozlik davrida ko'k o'tlardan to'yib oziqlanishi yangi tug'ilgan qorako'l qo'zilar teri mag'zining qalinlashuvi va g'ovaklashuviga, tolalar uzunlashuviga va gullarning bo'shashishiga olib keladi, ularning fikricha yupqa mag'z navli qorako'l olish uchun bug'oz qo'ylarni

birmuncha yemishdan “qisish”, ayniqsa bug’ozlik davrining oxirgi 1/3 bo’lagida to’ydirmasdan oziqlantirishni tavsiya qilishadi.

Boshqa bir guruh tadqiqotchilar, aksincha bug’ozlikning ikkinchi yarmida sovliqlarning to’laqonli oziqlantirilishi yuqori sifatli qorako’l shakllanishini ta’minlaydi, to’ydirib oziqlantirmaslik esa chala rivojlanish belgilari ko’zga tashlanuvchi qovurg’asimon navli, shaklsiz gulli terilar chiqimining ko’payishiga olib keladi.

Uchinchi guruh tadqiqotlar oziqlantirish turidan qat’i nazar yaxshi semizlikdagi sovliqlardan xamisha terisi yuqori sifatli bo’lgan qo’zilar olish mumkin deyishadi.

Bug’oz sovliqlarning semizligining qo’zilar terisi sifatiga naqadar ta’siri borligiga aniqlik kiritish uchun R.T.Pismennayaning “Qarnab” Davlat naslchilik zavodida o’tkazilgan tadqiqot natijalariga to’xtalamiz.

O’xshash guruhlar (anologiya) usuli bilan o’rta ishlab chiqarish yoshidagi mustahkam konstitusiyali qora rang elita klass sovliqlardan ikki suruv tashkil qilindi. Qochirim mavsumi arafasida birinchi suruv qo’ylari o’rtadan yuqori semizlikda, ikkinchi suruv qo’ylari esa o’rta semizlikda edi. Bu sovliqlar bir nasllik qo’chqor urug’i bilan qochirildi. Bug’ozlik davrida bir otar qo’ylari serxosil yaylovlarda boqilib, sovuq kunlari qo’shimcha yemlangan bo’lsa, ikkinchi suruv qo’ylari o’rtamiyona yaylovlarda qo’shimcha yemlanmasdan boqilgan. Tul mavsumi arafasida birinchi otar qo’ylari o’rta semizlikda, ikkinchi otar-o’rtadan past semizlikda bo’lgan. Birinchi otar qo’ylarining har 100 boshidan 112, ikkinchisida 97 boshdan qo’zi olingan. Yaxshi oziqlantirish sharoitida asralgan birinchi otar qo’ylarining qo’zilari bonitirovka qilinganda ikkinchi otar qo’zilariga nisbatan ularning orasida elita va birinchi klass qo’zilar chiqimi 9,2% ga ko’pligi aniqlandi. Bundan tashqari birinchi otar qo’zilarining terisi nisbatan yirik, vazmin bo’ladi. Masalan, birinchi otar qo’zilar terisining sath o’lchami o’rtacha 2337sm<sup>2</sup> ni, ikkinchi otarda esa 2219 sm<sup>2</sup> ni tashkil qildi.

Xuddi shunaqa holat terilarning vazni bo’yicha ham kuzatiladi –birinchi otar qo’zilarining terisi o’rtacha 280 g tosh bosgan bo’lsa, ikkinchi otarda 246 g

tosh bosdi. Teri mag'zining qalinligi va tolalar uzunligi bo'yicha birinchi va ikkinchi otar qorako'l terilari o'rtasida salgina farq kuzatildi.

Bug'oz sovliqlarning oziqlanish sharoiti qo'zilar tola qoplaminig sifatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi-birinchi otar qo'zilarining tola qoplami asosan kuchli ipaksimon va ipaksimon, kuchli yaltiroq va me'yorli yaltiroq, bo'lsa, ikkinchi otar qo'zilarida bu xususiyatlar nisbatan kuchsizroq ifodalangandi.

Ijobiy gullarning teri yuzasidagi miqdoriy salmoqlari ham birinchi otar qo'zilarida ancha yuqori bo'lgan.

Shunday qilib, bug'oz sovliqlarning bir maromda to'laqonli oziqlantirilishi homilaning me'yoriy rivojlanishini va qorako'l xususiyatlarining hayvon irsiy imkoniyatlari chegarasida shakllanishini ta'minlaydi. Bug'ozlik davrida ayniqsa uning ikkinchi yarmida to'laqonli oziqlantirilmagan sovliqlarning irsiy imkoniyatlari to'lig'icha yuzaga chiqmay qoladi. Shu sababli, bug'oz qorako'l qo'ylarini to'g'ri oziqlantirish va yaxshi asrash alohida ahamiyat kasb etadi.

**Qo'zilatish muddatlari.** Muayyan yaylov sharoitlarini inobatga olgan holda qochirim va tul olish muddatlarini belgilash yo'li bilan yuqori sifatli qorako'l olish muammosi doimo qorako'lchilarning diqqat markazida bo'lib kelgan.

Qochirim mavsumi arafasida sovliqlar serxosil yaylovlarda haydab boqilganda ular jamoa holida qo'yiladi, egiz olish ko'payadi, qisir qolish keskin kamayadi. Bug'oz sovliqlarni serxosil yaylovlarda haydab boqish homilaning to'laqonli rivojlanishini, tul mavsumining qisqa muddatlarda yakunlanishini ta'minlaydi. Bugungi kunda qorako'l qo'ylarining to'laqonli oziqlantirilishi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Ammo qorako'lchilarimiz erta va zichlashtirilgan tul olish usullarini qo'llashning naqadar maqsadga muvofiqligi, naqadar samaradorligi borasida xamon bir to'xtamga kelisha olishganlari yo'q. Shu sababli M.D.Zokirov va boshqalar tomonidan "Oyoq Og'itma" tajriba stansiyasining uch sovliq suruvida barvaqt tul olish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijasini keltirishni ma'qul bildik.

Tajriba o'tkazish uchun bahorgi jun qirqimidan so'ng qo'zisi qorako'l uchun so'yilgan (qari) sovliqlardan 3 otar tuzildi va ular uzoqdagi sero't yaylovlarga haydalib, to kuzgi jun qirqimigacha boqiladi. Tajribadagi sovliqlar yaxshi "et" olib semirib, ancha barvaqt qochirimga tayyor bo'ldi. Qochirim mavsumida uchala tajriba otari va nazorat otari ham bir sun'iy urug'lash punktida urug'landi.

Bunda bir xil muddatlarda qochirilgan sovliqlardan suruvlar tuzish maqsadida qochirimning dastlabki 7-9 kunida qo'shilib urug'langan uchala otar sovliqlaridan tug'ilgan I-suruv (600-650 bosh miqdorda), yana shuncha muddat oralig'ida shu tartib bilan mos tarzda II va III-suruvlar tashkil qilindi.

Tajriba otarlarida qo'zilash mavsumi omuxta yem va dag'al ozuqalar g'amlab qo'yilgan namunaviy quralarda o'tkazilib, yaylovlarda ko'k o'tlar paydo bo'lguncha qisqa muddatlarda (har bir suruvda 12-15 kun ichida) tugallandi. Serpushtlik preparati (SJK) qo'llanmasdan har 100 bosh sovliqdan o'rtacha  $\frac{1}{2}$  boshdan qo'zi olindi.

Nazorat guruhi sanalgan oddiy ishlab chiqarish otari sovliqlari an'anaviy muddatlarda oldin tajriba otari sovliqlarini qochirishda foydalanilgan qo'chqorlardan qochirildi.

Bu otar sovliqlari tul mavsumiga ancha oriqlab keldi, ularning qo'zi tug'imi yaylovdagi ko'k o'tlarning gurkirab o'sish davrida ancha cho'zilgan holda (32 kun) o'tdi, har 100 sovliqdan 102,7 boshdan qo'zi olindi.

Erta bahorgi tuldan olingan qo'zilar orasida o'rta gul elita va I-klassga mansublari ancha ko'p edi, nazorat guruhi qo'zilaridan olingan terilarga nisbatan tajriba guruhining qorako'l terilari sath o'lchami bo'yicha ancha bir xil, mag'zi yupqa, zich, tola qoplami o'rtacha tig'izlikda, kuchli ipaksimon va kuchli yaltiroq, sal kaltargan, gullari qayishqoq, rasmi aniq edi, yupqa mag'z I-nav terilar chiqimi ancha yuqori bo'lsa, tajriba guruhidan olingan terilar tajribada qalinmag'z va pastroq navli terilar nisbatan ko'proq edi.

Yoz jaziramasi boshlangunga qadar barvaqt tul qo'zilar kuchga to'lib, nazorat guruhi qo'zilariga nisbatan yirikroq jussali edi. Bu ustunliklar aftidan



ularning tik tushuvchi quyosh nurlarining azoblovchi ta'siriga dosh berishini kuchaytirgan bo'lsa kerak: onasidan ajratilgan paytda ularning tirik vazni nazorat guruhi qo'zilarinikidan 7,6 kg ga ziyod bo'ldi, ulardan ko'proq qo'zi juni qirqib olindi, qish mavsumiga ular yaxshi xolatda kirib kelishdi.

Xuddi shu kabi natijalar S.Y.Yusupov tomonidan "Oltinsoy" sovxozida ham olingandi.

Shunday qilib, ixtiyorida namunaviy issiq quralari bo'lgan, yetarli miqdorda omuxta va dag'al ozuqalari g'amlangan xo'jaliklarda barvaqt qo'zilatish maqsadga muvofiq hisoblanishi lozim. Qochirim oldi parvarishidan o'tgan "mari" qo'ylar alohida otarlarda saqlanadi. Ana shu otar cho'poncho'liqlarining amaliy malakalari yetarli bo'lib, kuyikkan sovliqlar orasidan semizlarini barvaqt qo'zilatish maqsadida ajratib iloji boricha qisqa muddatlarda qochirilsa egiz olish ko'payadi va qisir qolish kamayadi, eng qimmatli navlarga mansub yupqa mag'z qorako'l olish, durkun, xayotchan qo'zilar tarbiyalash imkonini beradi.

**Kuzgi qo'zilatish.** Dehqon xo'jaliklarni kollektivlashtirish davrigacha O'zbekiston qorako'lchiligida kuzgi qo'zilatish tadbiri qo'llanardi. Bundan maqsad qisir qolgan, erta bahorgi tulda qo'zilari teri uchun so'yilgan "mari" sovliqlardan unchalik ko'p bo'lmagan qo'shimcha qorako'l olish edi. Yaylovlarda ko'k o'tlarning yo'qligi, tez-tez havo sovib kuzgi yomg'irlar yog'ishi, ya'ni yaylov-iqlim sharoitlarining og'irligi kuzgi qo'zilatishda tug'ilgan barcha qo'zilarni o'stirishga qoldirmasdan teri uchun so'yishni taqazo qiladi.

## XULOSA

Bugungi kunda ham ayrim qorako'lchilik xo'jaliklari majburiy kuyikka keltiruvchi biostimulyator bilan emlangan kamsonli sovliqlar guruhini baxor faslining ikkinchi yarmida urug'lab kuzda qo'shimcha miqdordagi qorako'l terisini olishga muvoffaq bo'lmoqdalar.

Qisir qolgan, bola tashlagan hamda qo'zisi qorako'l uchun so'yilgan "mari" sovliqlarni biostimulyatorlardan foydalangan holda bahorgi qochirish

tajribalari haqiqatdan ham qo'shimcha tarzda qo'zilar olish imkoni mavjudligini ko'rsatadi.

Aprel oyida biostimulyatorlar bilan emlanib qochirilgan 4000 bosh sovliqdan sentyabr-oktyabr oylarida 1730 bosh qo'zi olingan. Kuyikka kelgan sovliqlar orasidan urug'langanlarining kamligini (atigi 43,25%) o'zaro bog'langan bir qator sabablar (havo xaroratining bir vaqt isib ketishi, qo'y organizmining fiziologik jihatdan baxorgi qochirimga tayyor emasligi, qorako'l qo'ylari jinsiy iklining ana muddatlarga mos kelmaganligi, bug'ozlik davridagi nochor oziqlanish tufayli embrional chiqim ehtimoli) bilan izohlash mumkin.

Kuzgi qo'zilatishdan olingan qorako'l terilari tuzlab quritilgan holda nisbatan yupqa mag'zi (baxordagi 1,4mm o'rniga 1mm), tola qoplaminig birmuncha quruqligi (baxorgi 3,1% o'rniga 14,2%) va kaltaligi bilan tavsiflanadi, baxorda olingan qorako'lga nisbatan birinchi navli qorako'l chiqimi 17,9-18,8% ga kam bo'ldi.

Kuzgi qo'zilatishdan olingan qorako'lda yupqa mag'z navli terilar nisbatan ko'proq edi. Birinchi navli qorako'l tarkibida Jaket –I, Moskva jaketi, Qovurg'asimon yupqa I va Kavkaz qalin I kabi navlar ko'proq edi. Qalin jaket, Kavkaz qalin I, Qovurg'asimon qalin I, Yassi qalin I navlarning ancha qalinligi evaziga birinchi navlar chiqimi tushib ketgan bo'lishi ham mumkin. Ikkinchi navli qorako'l salmog'ining oshishi asosan Jaket II, Qovurg'asimon II va Flora navlari sonining ko'payishi evaziga yuz bergan, uchinchi navlarda katta o'zgarishlar kuzatilmadi.

Ammo tola qoplaminig birmuncha quruqligi va dag'alligi, siyraklashganligi, gullarining yuqoriroq darajada qayishqoq va mustahkamligi, tolalarning shishasimon yaltiroqligi yozgi jaziramaning, to'yib ovqatlanmaslikning, keskin chegaralangan suv iste'molining natijasi bo'lsa ehtimol.

Kuzgi qo'zilatishdan olingan ko'k va sur rangli qorako'l ham birinchi navlar chiqimi bo'yicha baxorgi qorako'ldan birmuncha past edi va bu xolatni tola

qoplami tig'izligining kamayishi va gullar mustahkamligining pasayishi, dag'allashuvi, rangining bo'shashishi bilan izohlash mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yusupov S.Y, Bozorov S.R. Junga birlamchi ishlov berish texnologiyasi. – Samarqand, 1998. –B.16 –17.
2. Yusupov S.A. Maxalliy jun tolalariga ishlov berish texnologiyasini takomillashtirish: Dis.kan.tex–T: 2004, 194-b.
3. Yusupov S.Y, Axmedov F. O'zbekistonda qorako'lchilikning holati va navbatdagi vazifalar // Zooveterinariya. –T: 2011, №8.-B.34-35.
4. Sherov E., Inoyatov A.I. Turli jun konstitusiya tipidagi qorako'l qo'ylarning jun mahsuldorligi // Zooveterinariya, Toshkent, 2014. №11.S.29-30.
5. To'xtarov R., Xasilbekov A. Junga birlamchi ishlov berishda namlikning jun sifatiga ta'siri / Ilmiy maqolalar to'plami.Samarqand 2015. –B.178-180.